PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

BOLALARNI KREATIVLIKKA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Ashirboyeva Umida Turg‘unboyevna
Toshkent viloyati Parkent tumanidagi
43-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20355421

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik va psixologik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, kreativ fikrlashni shakllantirish usullari, zamonaviy ta’lim texnologiyalari hamda ilmiy tadqiqotlarga asoslangan misollar tahlil qilingan. Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning ta’lim sifati va shaxs kamolotidagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, ijodkorlik, ta’lim, pedagogika, bolalar psixologiyasi, innovatsion ta’lim, STEAM, didaktik o‘yinlar, tafakkur.

Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimida bolalarning nafaqat bilim olishiga, balki mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy jamiyat yangicha fikrlaydigan, muammolarga noodatiy yechim topa oladigan shaxslarni talab etadi. Shu sababli bolalarda kreativlikni shakllantirish pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Kreativlik” atamasi lotincha “creare” — yaratmoq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, insonning yangi g‘oya yaratish, noodatiy fikrlash va yangilikka intilish qobiliyatini anglatadi. Psixolog J. Gilford kreativlikni divergent tafakkur bilan bog‘lab, bir muammoning bir nechta yechimini topa olish qobiliyati sifatida izohlagan. E. Torrance esa kreativlikni insonning muammolarni sezishi, yangi fikr ishlab chiqishi va uni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyati deb ta’riflagan.

Bolalik davri kreativ qobiliyatlarni shakllantirish uchun eng muhim bosqich sanaladi. Chunki aynan shu davrda bolaning tasavvuri, qiziqishi va erkin fikrlashi faol rivojlanadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, kreativ fikrlash bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kreativ fikrlaydigan bolalar muammolarni tezroq hal qila oladi, yangi g‘oyalarni ilgari suradi hamda o‘z fikrini erkin ifodalaydi. Shuningdek, bunday bolalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqish yuqori bo‘lib, ular jamoada faol muloqot qilishga moyil bo‘ladilar. Kreativlik bolaning mustaqil fikrlashini shakllantirib, kelajakda turli vaziyatlarga moslashishiga yordam beradi. Amerikalik pedagog Ken Robinson o‘z tadqiqotlarida maktablarda ijodkorlikni rivojlantirish bilim berish kabi muhim ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bolalarning xato qilishdan qo‘rqishi ularning kreativ fikrlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ta’lim jarayonida bolalarni erkin fikrlashga undash muhim hisoblanadi. Rus psixologi Lev Vygotsky esa bolaning ijodiy faoliyati uning tasavvuri va hayotiy tajribasi bilan bog‘liq ekanligini qayd etgan. Olimning fikricha, bola qancha ko‘p kuzatish va tajriba orttirsa, uning ijodkorligi shuncha rivojlanadi. Shu bois ota-onalar va pedagoglar bolalarga yangi narsalarni o‘rganish, tajriba qilish va mustaqil fikr bildirish imkoniyatini yaratib berishlari zarur. Ko‘p usullar orqali biz bollarni kreativlika o‘rgatishimiz mumkin. Misol uchun turli o‘yinlar orqali bollarni ijodkorligini oshirish. O‘yin bolalar faoliyatining asosiy turi bo‘lib, u kreativlikni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar orqali bolalarda aqliy, jismoniy,

ma’naviy va ijodiy ko‘nikmalar shakllanadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinflarda qo‘llaniladigan o‘yinlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, erkin fikrlashiga yordam beradi.

Pedagogik tadqiqotlarda didaktik o‘yinlarning intellektual, harakatli va aralash turlari mavjudligi ta’kidlanadi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarda ijodkorlik, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, “Aqliy hujum” metodida o‘quvchilar berilgan savolga ketma-ket javob berish orqali o‘z fikrlarini erkin bayon qilishga o‘rganadilar. Bu metod bolalarda kreativ tafakkurni shakllantirishda samarali hisoblanadi. Shuningdek, fasllarga mos tashkil etiladigan “Olma terish”, “Paxta terish”, “Qorbobo”, “Archa bezash”, “Gul terish” kabi didaktik o‘yinlar ham bolalarda tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bunday o‘yinlar orqali bolalar mavzuni oson o‘zlashtiradi hamda dars jarayonida faol ishtirok etadi.

Boshlang‘ich ta’limda qo‘llaniladigan “Xat keldi” o‘yini ham kreativlikni rivojlantiruvchi samarali metodlardan biridir. Ushbu o‘yinda o‘quvchilar bir-birlariga savol yoki topshiriqlar yozilgan xatlar yuboradilar. O‘quvchilar xat yozish jarayonida o‘z fikrini mustaqil ifodalashga, savol tuzishga va ijodiy yondashishga o‘rganadilar. Bu o‘yin bolalarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirish bilan birga, o‘zaro hurmat va hamkorlik ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Darslarda o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ijodkorlik va tadbirkorlik sifatlarini rivojlantiradi. Shu sababli kreativlikni rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Rasm chizish, qo‘shiq kuylash, raqs va teatr mashg‘ulotlari bolaning estetik tafakkurini rivojlantiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, san’at bilan shug‘ullanuvchi bolalarda emotsional intellekt va ijodkorlik yuqori bo‘ladi. Masalan, bolaga “Kelajakdagi shaharni tasvirlab ber” mavzusida rasm chizdirilsa, u o‘z fantaziyasi va tasavvuridan foydalanadi. Bu esa kreativ tafakkurni kuchaytiradi. Bolalarning ko‘p savol berishi kreativ tafakkurning muhim belgilaridan biridir. O‘qituvchi va ota-onalar bolaning savollariga jiddiy yondashishi va uni erkin fikrlashga undashi kerak. Masalan, “Quyosh bo‘lmaganida Yerda hayot qanday bo‘lardi?” kabi savollar bolaning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantiryapti Bugungi kunda ta’lim tizimida STEAM yondashuvi keng qo‘llanmoqda. Ushbu metod fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiradi. AQSH maktablarida olib borilgan tadqiqotlar STEAM asosida ta’lim olgan bolalarda muammoni hal qilish va kreativ fikrlash ko‘rsatkichlari an’anaviy ta’limdagi bolalarga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatgan. Masalan, oddiy robot yaratish yoki tajriba loyihalari bolalarda ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Psixologlarning fikriga ko‘ra, bolani haddan tashqari tanqid qilish yoki qat’iy cheklovlar qo‘yish uning kreativligiga salbiy ta’sir qiladi. Erkin va qo‘llab-quvvatlovchi muhit esa bolaning yangi g‘oyalar bildirishiga yordam beradi. Shu sababli ota-onalar va pedagoglar bolaning fikrini hurmat qilishi, xato qilishiga imkon berishi, yangi g‘oyalarni rag‘batlantirishi hamda mustaqil qaror qabul qilishiga sharoit yaratishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda kreativlikni rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Kreativ fikrlaydigan bolalar kelajakda innovatsion g‘oyalar yaratishga, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga va murakkab muammolarni samarali hal qilishga qodir bo‘ladilar. Shu sababli ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlar, san’at, STEAM metodlari va erkin fikrlash muhiti keng qo‘llanishi lozim. Bolalarda kreativlikni rivojlantirish nafaqat ularning individual muvaffaqiyati, balki jamiyat rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill, 1967.
2. Torrance E.P. Creativity in the Classroom. Washington DC, 1995.
3. Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in Childhood. Moscow, 1991.
4. Robinson K. Out of Our Minds: Learning to be Creative. Oxford University Press, 2011.
5. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York, 1983.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent, 2015.